

- Balancing worker rights with employer needs can be complex. Regulations should ensure a fair and efficient system.
- Integration of migrants into the receiving society is important for social cohesion. Language training and cultural programs can ease integration.
- Ethical recruitment practices are crucial to prevent human trafficking and exploitation of vulnerable workers.

These are just a few examples, all countries have different approaches to regulating labor migration. The key is to strike a balance that benefits both immigrants and the communities they contribute to.

#### *References:*

1. *A.I. Евдокимов. Международное экономические отношения. Учебник. Москва «Проспект» 2004.*
2. *Адамчук В.В. Экономика и социология труда. – М: Юнити-Дана, 2001.*
3. *International economic relations textbook edited by Doctor of Economic Sciences, Professor A.I. Evdokimov. Moscow “Prospect”, 2004.*
4. *Акаев А.А. Миграция: формы и роль в улучшении качества жизни населения*
4. *Global Labor Migration: New Directions (Studies of World Migrations) by Etienne Penninx and Douglas S. Massey.*
5. *The Politics of Migrant Labour by Gabriella Alberti and Devi Sacchetto.*
6. *Edited by Eileen Boris, Heidi Gottfried, Julie Greene, and Joo-Cheong Tham | Global Labor Migration.*

## **QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASIDA AHOLI DAROMADLARI DINAMIKASI**

*Rahimboyev Muxtorbek*

*Toshkent Xalqoro Moliyaviy*

*Boshqaruv va Texnologiyalar Universiteti*

*“Iqtisodiyot va boshqaruv” kafedrasi o‘qituvchisi*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 - 2026-yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son farmoni ijrosini ta‘minlash, Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududlarida sanoat, qishloq xo‘jaligi va xizmatlar sohasining kelgusi besh yildagi istiqbollarini hamda har bir tuman va shaharning “o‘sish nuqtalari”ni belgilash, ijtimoiy sohani rivojlantirish orqali aholi salomatligi hamda turmush darajasini yanada yaxshilash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining 2022 - 2026-yillarda Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida [1] qaror qiladi. Qarorga ko‘ra Yalpi hududiy mahsulot hajmini 1,5 ga oshirish orqali ishsizlik darajasini 6,3 %ga qisqartirish, kambag‘alikni 50%ga qisqartirish va jami bandligi taminlangan aholi sonini 238,4 ming kishiga etkazish nazarda tutilgan. Bu natijaga erishi

uchun Qoraqalpog‘iston Respublikasi mehnat bozorining bugungi holatini bilish muhim hisoblanadi.

Mehnat bozori milliy iqtisodiyotning quyi tizimlaridan biri bo‘lib, u bir tomondan o‘z qonuniyatlari asosida faoliyat ko‘rsatsa, ikkinchi tomondan bozor iqtisodiyotining umumiy qonuniyatlariga bo‘ysunadi. Shu munosabat bilan bir qator uslubiy masalalar yuzaga keladiki, ularning echimi mehnat bozorining ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishini nazariy tushunish uchun muhimdir. Ilmiy adabiyotlarda mehnat bozori muammolariga katta e‘tibor qaratilgan, mutaxassislar o‘rtasida bu borada birlik yo‘q va hatto ushbu tadqiqot sohasining konseptual apparati haqida juda ko‘p turli xil fikrlar mavjud. Xususan, bu “Ishchi kuchi bozori” va “Mehnat bozori” kabi asosiy tushunchalarga taalluqlidir.

“Mehnat bozori”ga Л.И.ШЕВЧЕНКО “mehnat bozorini yollanma mehnatni tashkil etish, foydalanish va haq to‘lash bilan bog‘liq bo‘lgan ishlab chiqaruvchilar hamda ish beruvchilarning manfaatlarini kelishish va tartibga solish shakllari hamda usullari, iqtisodiy munosabatlari yig‘indisi” sifatida tavsiflaydi[2]. O‘z navbatida, И.Л.Петрова “mehnat bozori, uning mohiyati nuqtai nazaridan, mehnatni o‘z ichiga olish, muvofiqlashtirish va baholash usullari to‘plami sifatida belgilanishi mumkin”[3] deb hisoblaydi. Yana bir fikr Г.И.Купалова tomonidan qabul qilinadi. Uning fikricha, “ishchi kuchi bozori” va “mehnat bozori” tushunchalari ekvivalent sifatida ishlatilishi mumkin, chunki ular bir-biri bilan chambarchas bog‘liq, bir-birini to‘ldiradi hamda bozor munosabatlari jarayonida biridan ikkinchisiga o‘tadi[4].

### 1-jadval

#### Qoraqalpog‘iston Respublikasida aholi bandligi va daromadlari dinamikasi


Ko‘rsatkichlar	2010	2015	2020	2021	2022	2022 yilda 2010 yilga nisbatan o‘zgarishi, (-,+)
Aholi bandlari soni, ming kishi	580,8	630	707,4	702,7	714,2	133,4
Ish haqi, ming so‘m	180,2	1143,3	2356,5	2768,3	3246,2	3066,0
Aholi real umumiy daromadi (mlrd. so‘m)	2301,1	6581	15989,70	20046,60	23292,60	20991,5

Mehnat resurslaridan foydalanishning asosiy ko‘rsatkichi ularning miliy iqtisodiyotda ish bilan bandligida ifodalanadi. Ish bilan bandlik - bu iqtisodiy faol aholining qonun hujjatlariga muvofik, daromad keltiradigan faoliyatga ega bo‘lishidir. O‘zbekiston Respublikasining «Aholi bandligi to‘g‘risida»gi Qonunining[5] 4-moddasiga asosan, “Bandlik fuqarolarning qonunchilikda taqiqlanmagan, o‘z shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qanoatlantirish bilan bog‘liq bo‘lgan, ularga ish haqi (mehnat daromadi) keltiradigan faoliyatidir”.

Jadval qiymatlariga asosan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi iqtisodiyotida aholi bandligi 2010 yilda 580,8 ming kishini tashkil etgan bo‘lsa, 2022 yilga kelib bazis yilga nisbatan 133,4 ming nafarga o‘sib jami mehnat resurslariga nisbatan 90,9 %ga teng bo‘ladi. Bu davr oraliqda ya‘ni 2022 yilda o‘rtacha oylik ish haqi 3246,2 ming so‘mga

teng bo'lib, bunda eng yuqori oylik moliyaviy va sug'urta faoliyati bo'yicha 8698,9 ming so'm, sanoat (4639,8 ming so'm) hamda tashish va saqlash (4326,1 ming so'm) tarmoqlariga to'g'ri keladi.

Ish bilan band mehnat resurslarining iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha taqsimlanishi dinamikasining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, keyingi yillarda iqtisodiyot real sektorining moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarining ish bilan band aholi umumiy sonidagi ulushi kamayish tendensiyasiga, xizmat ko'rsatish sohasining ulushi esa o'sish tendensiyasiga ega bo'lib bormoqdaki buning umumiy xizmat sohasida bajarilgan ishga nisbatan olinadigan ish haqining o'sishiga bog'liq (1-rasm).



### 1-rasm. Qoraqalpog'iston Respublikasi iqtisodiyoti tarmoqlarida bandlar ulushi

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, ish bilan band aholi sonidagi sanoatning ulushi 2010 yildagi 20,4 %dan 2022 yilda 18,9%ga, qishloq xo'jaligining ulushi esa shunga mos ravishda 24,3 %dan 22,9%ga qurilish tarmog'ida aholi bandligi 23,9 %dan 22,8 %ga kamaydi. Xizmat ko'rsatish sohasida 2010 yilda 31,4 %dan 2022 yilga 34,4 %ga etdi. Bunda asosan, transport va aloqa hamda kurilish sohasining ish bilan bandlar sonidagi ulushlari esa oshib bormoqda. Shuningdek, ijtimoiy sohalar, ya'ni uy-joy kommunal xo'jaligi va aholiga maishiy xizmat ko'rsatishning noishlab chikarish turlari, sog'likni saqlash, jismoniy tarbiya va ijtimoiy ta'minot, ta'lim, madaniyat, san'at, fan va ilmiy xizmat ko'rsatish soxalarining ish bilan band aholi sonidagi ulushlari yildan-yilga o'sib bormoqda.

Ijtimoiy yo'naltirilgan iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida nafaqat bandlik darajasi, balki uning mehnat bozorining rasmiy va norasmiy segmentlarida farq qiluvchi hamda aholi turmush sifatiga turli yo'llar bilan ta'sir ko'rsatadigan tabiati ham muhimdir. Har bir inson mehnat qilish huquqiga ega, ikkinchisi esa obro'li bo'lishi, ya'ni u muayyan

qonunchilik doirasida amalga oshirilishi va ijtimoiy himoya kafolatlarini o'z ichiga olishi kerak.

***Foydalanilgan adabiyotlar:***

1. O'zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining "2022 — 2026-yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasi hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 04.04.2022 yildagi 155-son qarori. <https://lex.uz/ru/docs/-5939940>

2. Шевченко Л.И. Рынок труда: анализ экономических концепций // Экономика Украины. – 2006 – № 4. – С. 18.

3. Петрова И. Л. Сегментация рынка труда: теория и практика регулирования. – К.: Аванпост, 2007. – 240 с.

4. Купалова Г.И. Социально-экономическая сущность формы и функции рынка рабочей силы // Занятость и рынок труда. – 2006. – № 2. – С. 12-19.

5. O'zbekiston Respublikasining "Aholi bandligi to'g'risida" qonuni, 20.10.2020 yildagi O'RQ-642-son. <https://lex.uz/docs/5055690>

## **TOSHKENT VILOYATI AHOLISI BANDLIGINING OILAVIY TARKIBGA TA'SIRI**

***Sabirova Muazzam***

*Alfraganus Universiteti Turizm fakulteti*

*katta o'qituvchisi*

Jamiyatdagi har qanday qusur va kamchiliklarning ildizini aksariyat hollarda oilalardagi ijtimoiy-ma'naviy muhitdan izlash nechog'lik o'zini oqlagani kabi, kuchli, barqaror va farovon davlat negizini ham, avvalo, mustahkam oilalar tashkil etishi bugun vaqt va zamon chig'irig'idan o'tgan ulkan haqiqatdir. Sharqda, musulmon mamlakatlarida azaldan oila muqaddas dargoh sanalgan. Agar oila sog'lom va mustahkam bo'lsa, yurtda tinchlik va hamjihatlikka erishiladi. Zero, oila farovonligi milliy farovonlik asosidir. Shuning uchun oilaning ijtimoiy hayotdagi o'rni va ahamiyatiga qadim zamonlardan beri davlatlar qonunchiligida alohida e'tibor beriladi. Xususan, Bosh qomusimizda ham "Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega" [9.], deb belgilab qo'yilgan.

Oilani tadqiq etishda va o'rganishda avvalambor oilaning turi, o'lchami, shakli va tuzilishini tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Oilaning tarkibi – oiladagi kishilar soniga ko'ra taqsimlanishi, uning shakli, tuzilishi va turlariga ko'ra bo'linishidir [37.]. Oilani o'rganishda uning vazifalaridan eng muhimi bu aholining takror barpo bo'lishi ya'ni tug'ilish jarayonlarining rivojlanishidir.

Oilaning asosiy vazifasi "1990-yillargacha ishlab chiqaruvchilik vazifasi cheklangan ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatdan iborat bo'lgan" [1;B-225.]. Bu davrda bolalarni dunyoga keltirish, uning tarbiyasi bilan bog'liq bo'lib ayol kishi shu ish bilan band bo'lgan. Bozor munosabatlariga o'tish davrida esa oilaning mamlakat iqtisodiyoti va